

TURISTIK BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15150001>

Tuychiyev Alisher Juraevich

Alfraganus University professori, I.F.D

Saidakramov Minhojiddin Yusuf o'g'li

Alfraganus University magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada turistik biznesni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Turizm sohasi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ko'rib chiqilib, zamonaviy texnologiyalar va raqamli yechimlarning biznes rivojiga ta'siri o'rganiladi. Maqolada turizm xizmatlarini takomillashtirish, yangi innovatsion strategiyalarni joriy etish hamda xalqaro tajribalarni qo'llash orqali sohani yanada rivojlantirish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar

Turistik biznes, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy rivojlanish, xizmat ko'rsatish, strategiya, xalqaro tajriba.

Turizmدا innovatsiyalarning jadal rivojlanishi 1972 yilda "United States Luggage" kompaniyasi xodimi Bernard Devid Sadou tomonidan g'ildirakli jomadonlar ixtirosi uchun patent olinishi bilan boshlangan va sohaning butkul elektronlashuvi hamda unda sun'iy intellekt ishtiroki faollashuvi bilan davom etayapti, deb hisoblayman. 40 yilcha avval og'ir yuklar sabab o'rta qanday innovatsiya muammo va uning echimini izlashga aloqador bo'ladi. Bugunning eng katta muammosi – insonlarning nihoyatda qulay hayotga intilishi va doimo bunga xalaqit beruvchi omillar kelib chiqaverishidir. Masalan, Yer sayyorasi aholisi ko'payishi, turli sohalardagi murakkab rivojlanishlar "Big Data" – "ulkan axborotlar" masalasini vujudga keltirdi¹. Mehmonxonalar, aeroportlar yoki turizm biznesining boshqa sub'ektlari bir necha yuzlab, balki minglab mijozlarning axborotlarini tahlil qilishi, ularga samarali xizmat ko'rsatishi kerak. Undan tashqari, bu bizneslar o'z xodimlari va hamkorlari bilan bog'liq axborotlar oqimini

¹ www.unwto.org – Butubjahon turizm tashkiloti rasmiy axborot sayti ma'lumotlari

boshqarishi ham kerak. Shu tufayli, sohaning ko'p tarmoqlarida avtomatlashtirish jarayonlari kechmoqda.

Insonlar amalga oshirishi qiyin bo'lgan ishlarni kompyuterlar, robotika va sun'iy ong bajarishi bizning davrimizga kelib odatiy holga aylanmoqda. Bunga mehmonxonalarni avtomatlashgan tarzda boshqarish imkoniyatini beruvchi Opera, Amadeos, Fidelio, Eptome PMS va boshqa shu kabi dasturlarning rivojlangani misol bo'ladi. Yana shuni alohida ta'kidlash zarurki, turizm biznesi sub'ektlari o'z mahsulotini mijozlarga samarali etkazmoqchi bo'lsa, albatta zamonaviy kommunikatsiya usullaridan foydalanishi kerak. Bizneslarning o'z internet saytlari, ijtimoiy mediada yoki sayohat qiluvchilar orasida mashhur yirik onlayn platformalar, xususan Booking.com, TripAdvisor, Expedia, Cheapair kabi saytlarda o'z sahifalari bo'lishi va ular strategik yuritilishi marketingga innovatsion yondashishning yaqqol misoli bo'ladi. Axir, foydalanuvchilarning internet kengliklarida qoldiradigan fikrlari, o'zlariga ko'rsatilgan xizmatga beradigan baholari asosida shakllanadigan reytinglar sifatli mahsulot taklif etuvchi kompaniyalar uchun haqqoniy reklama, jamoatchilik bilan aloqa o'rnatish (PR) mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda turizm jahon bozori talablari bilan rivojlanib borayapti, albatta. Bugun yurtimizga tashrif buyurmoqchi bo'lgan sayyoh internet orqali o'z sayohatini rejalashtirishi, mehmonxona va aviakompaniyalar onlayn xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Mamlakat hududida smartfonlardagi maxsus mobil ilovalar orqali taksi chaqirtirish, ovqat buyurtma qilish, restoranda joy band qilish yoki borayotgan manzillari haqida internetdan ma'lumot olish imkoniyati bor. Axborot texnologiyalari shu tariqa sayohat industriyasida taraqqiy etishni davom ettiradi. Misol tariqasida quyidagi faktlarni sanab o'tish mumkin:

O'rta Osiyo va Kavkazorti mamlakatlaridagi yirik va jadal rivojlanayotgan onlayn agentlik hisoblangan Oriental Express CA O'zbekiston turistik xizmatlarini targ'ib qilishda faollik ko'rsatayapti, yildan yilga OrexCA.com foydalanuvchilari diyorimiz, undagi rang-barang urf-odatlar, turistik manzilgohlar haqida shu manbadan ma'lumot oladi. Qolaversa, O'zbekistonda turoperatorlar va mehmonxonalar o'rtasida internet vositasida axborot almashish servisi – Hotelios joriy qilingan. Mazkur tizim MDH davlatlari orasida muqobili yo'q bo'lgan innovatsion loyiha hisoblanadi. Sug'urta polislarini onlayn olish imkoniyatlarining mamlakatimizda joriy qilingani ham shular jumlasidandir.

Biroq, biz O'zbekistonga ko'proq sayyohlar tashrif buyurishiga erishish, bizda mavjud madaniy, tarixiy obidalar va o'ziga xos tabiatga ega manzilgohlarni ommalashtirish bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirishimiz kerak. Menimcha, xalqimiz tinchligi va sarhadlarimiz xavfsizligi chora-tadbirlari ko'rilgan holda,

yurtimiz mehmonlari, ularning shaharu qishloqlarimizga kelishi uchun iloji boricha qulayliklar yaratilsa, innovatsiyalar yordamida ularning xarajatlarini tejash masalalari hal qilinsa, O'zbekistondagi turistik xizmatlar yanada jozibador bo'ladi va ko'proq daromad olib keladi.

Birgina turizm sohasidagi taklif omillari xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, turistik mahsulotning uchdan bir qismini mamlakatimizga chet ellik va mahalliy turistlarni jalb etadigan diqqatga sazovor joylar tashkil etadi.

Mamlakatimizdagi [tarixiy obidalar](#), viloyatlardagi turli xil milliy madaniyat sarchashmalari, tabiiy boyliklarimiz va boshqa shu kabilar turistlarni mamlakatimizga qiziqtiruvchi asosiy motivatsiya omil sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlarni joylashtirish vositalari, transport xizmati hamda turizm infratuzilmasining boshqa turistik ob'yektlari va elementlari O'zbek turistik mahsulotidagi barcha taklif omillarning ikkidan bir qismini tashkil etadi.

O'zbekiston turizmi yoki milliy turistik mahsulotning bozor tizimi (ekspertlar bahosi)³

Talab omillari	O'zbekis ton bo'yicha taq- simlanishi, foiz	Taklif omillari	O'zbekis ton bo'yicha taqsimlanishi, foiz
Xalqaro bozorlar r	20	Diqqatga sazovorliklar va faoliyat turlari. Joylashtirish vositalari.	30 10
Ichki bozorlar	35	Boshqa turistik ob'yektlar va xizmatlar. Transport.	15 10
Mahalliy aholi tomonidan turistik diqqatga sazovor joylar, ob'yektlar va xizmatlardan foydalanish	45	Infratuzilmaning boshqa elementlari. Institutsional elementlar.	15 20
Jami	100foiz	Jami	100foiz

Turizm sanoatida butun jahondagi ishchi kuchining 60 foiz qismi mehnat qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yilda butun jahonda turizm orqali olinuvchi daromad 621 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga borib bu ko'rsatkich ikki trillion dollarni tashkil etdi.

³ www.unwto.org – Butubjahon turizm tashkiloti rasmiy axborot sayti ma'lumotlari

Butunjahon turizm tashkiloti baholariga ko'ra 2010 yilda turistlar soni 1018 million kishiga etgan bo'lsa oradan 10 yildan ko'proq vaqt o'tib bu ko'rsatkich yana 20 % ga oshihi prognoz qilingan. Butun jahonda turizmning ahamiyati tobora o'sib borib, bu turizmning alohida mamlakatlar iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ta'sirining o'sishi bilan bog'liq.

Yevropa hamjamiyati mamlakatlari va sanoati rivojlangan boshqa mamlakatlarda turizmdan olinuvchi daromad yalpi ichki mahsulotning 5,5 foiz qisimini tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2020 yilda Xitoy eng ko'p tashrif buyuriluvchi mamlakatga aylandi. Gonkong va Rossiyada ham yuqori suratlarda o'sishning yuzaga kelishi kutilmoqda. Xitoy va Gonkong ulushiga jahondagi turistlar oqimining 12,3 foiz qismi to'g'ri keldi.

Yevropa mamlakatlari ichida Chexiya yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Xorijiy turistlar qatoriga mazkur mamlakatga 24 soatdan kam bo'lmagan muddatga kirib kelgan har bir sayohatchilar kiritiladi. Shuni ham qayd etib o'tish joizki, ba'zi bir mamlakatlarda BMT statistika komissiyasi tavsiyanomalaridan chetga chiqish ham kuzatilmoqda. Xalqaro turistik yo'nalishlarning o'rtacha 65 foiz qismi Yevropa, 20 foiz qismi Amerika va 12 foiz qismi qolgan mintaqalar zimmasiga to'g'ri keladi. Asosan turistlar qabul qilish bilan shug'ullanuvchi mamlakatlarda xalqaro turizmning rivojlanishi xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish va yangi ish joylari yaratish ishtiyoqi bilan izohlanadi.

Ko'pchilik mamlakatlar xalqaro turizm vositasi bilan to'lov balansi muammolarini hal qilishga harakat qiladilar. Xorijdan keluvchi turistlar tovarlar va xizmatlarga haq to'lash yo'li bilan turistlarni qabul qiluvchi mamlakat byudjetiga valyuta kelib tushishini ta'minlaydilar va shu tariqa uning to'lov balansini faollashtiradilar. Shu sababli chet eldan turistlarning kelishi "faol turizm" deb nomlanadi. Turistlarning chetga chiqishi milliy valyutaning chetga chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Mazkur turdagi turistik operatsiyalar bo'yicha xalqaro to'lovlar turistlarni eksport qiluvchi mamlakatning to'lov balansi passivida qayd etiladi hamda bunday turizm "passiv turizm" deb ataladi.

O'zbekistonda turizm tarmog'ini zamonaviylashuvi haqida gapirar ekanmiz, milliy aviakompaniyamiz aktivida ko'payayotgan drimlaynerlar hamda yaqin kelajakda rivojlanishi umid qilinayotgan charter reyslar haqida to'xtalib o'tishimiz zarur. So'nggi 5 yil oralig'ida mamlakatimizda o'tkazilayotgan turli xil xalqaro festivallar doirasidagi anjumanlarda dunyoning turli davlatlarning shaharlaridan Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Shaxrisabz, Xiva kabi tarixiy joylarimizga charter reyslar tashkil qilinsa, tasavvuf namoyandalari sharafiga bunyod bo'lgan ziyoratgohlarga kelishni istagan dunyo sayyohlari soni bir necha milliongacha etishi mumkinligini ta'kidlanmoqda.

Bunday loyihani amalga oshirishda xavfsizlik choralari ko'rish muhim, o'ylaymanki, bunda zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash yaxshi natija beradi.

Sayohatni qulayroq va kamxarjroq bo'lishi uchun individual turizmga ham bosqichma-bosqich keng yo'l ochish zarur. Ya'ni yurtimizga sayyohlar jamoa bo'lib kelishidan tashqari, chet elliklarning o'zi mustaqil ravishda shaharlarimizni sayr qilishini rag'batlantirish kerak, deb hisoblayman. Xususan, Airbnb, Couchsurfing, HomeAway kabi internet xizmatlari orqali sayohatni tashkil qilish ancha samarali va hamyonbop bo'lib qolgan.

Bu yo'nalishdagi qadamlar allaqachon amalga oshirila boshlagani quvonarli. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"²gi Farmonida, xususan, bir necha bandlar viza rejimi, aeroportlarda ro'yxatdan o'tish jarayonlarini soddalashtirish, turizmni yanada liberallashtirishga oid ko'rsatmalarni nazarda tutadi. Undan tashqari, ham mazkur Farmon, ham onlayn muhokamaga qo'yilgan O'zbekiston Respublikasida o'rta muddatli istiqbolda turizmni rivojlantirish Kontseptsiyasi loyihasi sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlaydi.

Shu borada Alfraganus University MChJ da faoliyat yuritadigan turizm fakulteti misolida fikr bildiradigan bo'lsak quyidagilarga to'xtalishimiz mumkin. Soha yangiliklaridan boxabar va zamonaviy bilim, ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash bo'yicha har bir o'tiladigan fan doirasida o'sha yo'nalishga oid innovatsiyalar, xususan, IT innovatsiyalar o'qitilishi – tegishli mavzular o'quv dasturlariga kiritilgan. "Turizmda axborot texnologiyalar" fanlari joriy qilinishi ham bu bo'yicha qilinayotgan yaxshi ishlarga misol. Qolaversa, universitetimizda mehmonxona resepsioni, lobbisi, restoran va bar hamda mehmonxona nomeri namunalari ko'rinishidagi laboratoriya xonalari ishga tushirilgan.

Faqatgina laboratoriyalardagi kompyuterlarga mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish, restoran biznesini yuritish va boshqa turistik xo'jalik faoliyatida foydalaniladigan Opera, Fidelio, R-Keeper kabi dasturlar o'rnatilishi zarur.

Talabalar esa shu dasturlardan foydalanishni amaliy jihatdan o'rganib, bitirib o'z ish joyiga borganda bunday tizimlarni bema'lol ishlata olishi lozim. Bunda yuqorida nomi keltirilgan dasturlarni ishlab chiqqan kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ayni muddao bo'lardi. Soha yangiliklarini doimiy ravishda tadqiq qilish uchun darsdan tashqari mashg'ulotlar yoki fakultativ kurslar tashkil etilishini o'ylab ko'rish kerak. Amaliyotchilarni ta'lim jarayon-

² Mirziyoyev Sh.M. Toshkent sh., 2016-yil 2-dekabr, PF-4861-son «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni

lariga jalb etish ham bugunning talabi, joriy mehnat bozoriga raqobatbardosh kadr tayyorlashning shartidir. O'zim fakultetda ishbilarmonlar bilan hamkorlikda binar ma'ruzalar o'tkazaman. Biror mavzu – ham nazariy, ham amaliy tomondan ochib berilishi auditoriyaga ham qiziq, ham foydali. Lekin bunday ma'ruzalarni o'tkazishni muntazamligiga erishishni tahlil qilishimiz kerak. Vaqt bu – pul. Buni yaxshi anglagan ishbilarmonlar yoki sifatli ishi uchun katta daromad ko'radigan dasturchilar bir marta, ana boring ikki marta “rahmat” uchun o'z bilimi va tajribasini ulashadi. Biroq, bunday loyihalarni moliyalashtirish masalasi hal etilmasa, amaliyotchilarni rag'batlantirish mexanizmi ishlab chiqilmasa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyinroq bo'ladi.

Bugungi kunda Alfraganus Universityda barcha sohalar kabi turizm bo'yicha o'tkaziladigan konferentsiya, seminar va boshqa tadbirlarning amaliy ahamiyati katta, chunki bunday tadbirlar ilmiy maqolalarni to'plamlarda chop ettirish imkoniyatini yaratish bilan cheklanib qolmay, muhokama etilgan masalalarga aniq yechimlarni o'z ichiga olgan rezolyutsiyalar manfaatdor tashkilot va idoralar, kompaniyalarga etkazilmoqda. Shuningdek izlanuvchilar tomonidan ishlab chiqilgan muhim takliflar sanoatga tadbiriq etilmoqda.

Shuningdek, axborot texnologiyalarga faol murojaat qilingan loyihalarni o'z ichiga olgan xorijiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan rejalar, onlayn konferentsiyalar, vebinarlar va xorij mutaxassislari bilan masofaviy ma'ruzalar tashkil etilishi ushbu sohani rivojlanishida tez orada o'z natijalarini beradi deb umid bildiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Toshkent sh., 2016-yil 2-dekabr, PF-4861-son «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmon.
2. www.unwto.org – Butubjahon turizm tashkiloti rasmiy axborot sayti ma'lumotlari.